

«TASDIQLANGAN»

“Kapitalbank” ATB
Bank kengashining
2020-yil 12-martdagi qarori
bilan
(2020-yil 12-martdagi
11-son majlis bayoni)

Bank Kuzatuv kengashi

Raisi

Abdusamadov M.A.

2020-yil 12-mart

«RO‘YXATGA OLINGAN»

O‘zbekiston Respublikasi
Kapital Bozorini
Rivojlantirish Agentligi

Direktorning birinchi o‘rinbosari

Mahkamov T.E.

2020-yil 24-aprel

№ _____

M.O‘.

QAROR
KORPORATIV «SUBORDINATSIYALANGAN» OBLIGATSIYALARNI CHIQARISH
TO‘G‘RISIDA

“Kapitalbank” aksiyadorlik-tijorat banki

Identifikatsiya nomeri berildi:																				
---------------------------------	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--

50 000 dona egasining nomi ko‘rsatilgan hujjatlashtirilmagan foizli

korporativ obligatsiyalar

Bitta obligatsiyaning nominal qiymati 1 000 000 so‘m

Ochiq obuna

Korporativ obligatsiyalarning ushbu chiqarilishi to‘rtinchi chiqarish hisoblanadi.

Bank Kengashining 2020-yil 12-martdagi qarori bilan tasdiqlangan.

11-son bayonnoma

Bank Kengashining 2020-yil 12-martdagi qarori asosida

11-son bayonnoma

O‘zbekiston Respublikasi, 100047, Toshkent sh., Sayilgoh ko‘chasi, 7.

Tel.: 71 232-10-95, faks: 71 232-10-95

Boshqaruv Raisi

Mirzayev A.A.

Bosh buxgalter

Allayorova D.N.

Sana: 2020-yil “12” mart

M.O‘.

1. Ushbu chiqarishdagi korporativ obligatsiyalarning turi va tipi (oddiy, yutuqli, foizli, foizsiz (maqsadli) va h.k.): **egasining nomi ko'rsatilgan foizli korporativ obligatsiyalar.**

2. Ushbu chiqarishdagi korporativ obligatsiyalarning shakli: **hujjatlashtirilmagan.**

3. Ushbu chiqarishdagi korporativ obligatsiyalar nominal qiymati (so'm): **1 000 000 (bir million) so'm.**

4. Ushbu chiqarishdagi korporativ obligatsiyalar miqdori (dona): **50 000 (ellik ming) dona.**

5. Ushbu chiqarishning umumiy hajmi (so'm): **50 000 000 000 (ellik milliard) so'm.**

6. Ushbu chiqarishdagi korporativ obligatsiyalar egalarining huquqlari:

Ushbu chiqarishdagi har bir obligatsiya uning egasiga bir xil hajmdagi huquqlarni beradi. Obligatsiya egasi obligatsiyalarni unda ko'zda tutilgan muddatda qaytarishda obligatsiyalarning nominal qiymatini olish huquqiga ega. Obligatsiya egasi obligatsiyaning nominal qiymatidan foiz shaklida ushbu Qarorning 14.3-bandida ko'rsatilgan stavka bo'yicha foiz daromadini olish huquqiga ega.

"Kapitalbank" ATB tugatiladigan va/yoki qayta tashkil etiladigan hollarda ushbu obligatsiyalar bo'yicha talablar depozitorlar va boshqa kreditorlarning talablari qondirilganidan so'ng qondiriladi.

Ushbu chiqarish obligatsiyalari garov bilan kafolatlanmagan hisoblanadi. Obligatsiyalar emitent yoki u bilan bog'liq shaxslar tomonidan boshqa aktivlar bo'yicha ta'minot yoki kafolat sifatida taqdim etilmagan, "Kapitalbank" ATB tugatiladigan hollarda ular bo'yicha to'lovlarni to'lash navbati o'zgarmaydi, ya'ni ular depozitorlar va kreditorlarning talablariga tenglashtirilmaydi.

"Kapitalbank" ATB O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq obligatsiyalarni chiqarish amalga oshmagan yoki haqiqiy emas deb tan olinadigan hollarda obligatsiyalar egalariga investitsiya qilingan mablag'larni qaytarish majburiyatini zimmasiga oladi.

Obligatsiyalar egasi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi bilan ko'zda tutilgan boshqa huquqlarni amalga oshirish huquqiga ega.

"Kapitalbank" ATB obligatsiya egalarining huquqlarini, ular bu huquqlarni amalga oshirishning O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi bilan o'rnatilgan tartibiga rioya qilganlarida, ta'minlash majburiyatini zimmasiga oladi.

7. Jamiyat ustavi va/yoki obligatsiyalar chiqarish to'g'risidagi qarorda ushbu chiqarishdagi korporativ obligatsiyalarni sotib olishga har qanday cheklovlar:

Obligatsiyalar potensial investorlarning cheklanmagan doirasi o'rtasida ochiq obuna yo'li bilan joylashtiriladi.

«Kapitalbank» ATB Ustavida joylashtiriladigan obligatsiyalarning xaridorlari bo'lishi mumkin bo'lgan sotib oluvchilarga nisbatan cheklovlar ko'zda tutilmagan.

8. Jamiyat ustav kapitalining miqdori (so'm):

Ustav jamg'armasi miqdori - 155 732 061 700 (bir yuz ellik besh milliard yetti yuz o'ttiz ikki million oltmish bir ming yetti yuz) so'm.

9. Ilgari joylashtirilgan aksiyalar miqdori (turlari bo'yicha bo'lib ko'rsatiladi):

Oldin joylashtirilgan oddiy aksiyalarning umumiy miqdori 163 928 486 (bir yuz oltmish uch million to'qqiz yuz yigirma sakkiz ming to'rt yuz sakson olti) dona.

10. Ilgari joylashtirilgan obligatsiyalar miqdori (tiplari va turlari bo'yicha bo'lib ko'rsatiladi):

Bankning birinchi marta chiqarilgan obligatsiyalari 2007-yilning 6-martida Qimmatli qog'ozlar bozorini muvofiqlashtirish va rivojlantirish markazida R0804-son bilan ro'yxatga olingan.

A) Chiqariladigan obligatsiyalarning seriyasi va shakli: egasining nomi ko'rsatilgan, hujjatlashtirilmagan (naqd pulsiz) shaklda, oddiy foizli korporativ obligatsiyalar.

B) Chiqarilgan obligatsiyalar miqdori: 2500.

B) Chiqarilgan bitta obligatsiyaning nominal qiymati: 1 000 000 so'm.

G) Umumiy emissiya hajmi (nominal qiymati bo'yicha): 2 500 000 000 so'm.

Ushbu chiqarilish asosida chiqarilgan korporativ obligatsiyalar Qimmatli qog'ozlar bozorini muvofiqlashtirish va rivojlantirish markazining 09.06.2017-yildagi 15-07/009-son qaroriga muvofiq bekor qilingan.

Bank obligatsiyalarining ikkinchi chiqarilishi 2009-yil 23-oktyabrda Qimmatli qog'ozlar bozorini muvofiqlashtirish va rivojlantirish markazida R0804-2-son bilan qayd qilingan.

A) Chiqariladigan obligatsiyalar seriyasi va shakli: egasining nomi ko'rsatilgan, hujjatlashtirilmagan (naqd pulsiz) shaklda, oddiy foizli korporativ obligatsiyalar.

B) Chiqarilgan obligatsiyalar miqdori: 5000.

V) Chiqarilgan bitta obligatsiyaning nominal qiymati: 1 000 000 so'm.

G) Umumiy emissiya hajmi (nominal qiymati bo'yicha): 5 000 000 000 so'm.

Ushbu chiqarish asosida chiqarilgan korporativ obligatsiyalar Qimmatli qog'ozlar bozorini muvofiqlashtirish va rivojlantirish markazining 16.01.2020 yildagi 15-09/001-son qaroriga muvofiq bekor qilingan.

Bank obligatsiyalarining uchinchi chiqarilishi 2012-yil 17-iyulda Qimmatli qog'ozlar bozorini

muvofiglashtirish va rivojlantirish markazida R0804-3-son bilan ro'yxatga olingan.

A) Chiqariladigan obligatsiyalar seriyasi va shakli: egasining nomi ko'rsatilgan, hujjatlashtirilmagan (naqd pulsiz) shakldagi, oddiy foizli korporativ obligatsiyalar.

B) Chiqarilgan obligatsiyalar miqdori: 4000.

B) Chiqarilgan bitta obligatsiyaning nominal qiymati: 1 000 000 so'm.

G) Umumiy emissiya hajmi (nominal qiymati bo'yicha): 4 000 000 000 so'm.

Ushbu chiqarilish asosida chiqarilgan korporativ obligatsiyalar Qimmatli qog'ozlar bozorini muvofiglashtirish va rivojlantirish markazining 06.10.2014 № 15-07 062-son qaroriga muvofiq bekor qilingan.

11. Ushbu chiqarilish korporativ obligatsiyalarini joylashtirish shartlari va tartibi.

11.1. Ushbu chiqarilish korporativ obligatsiyalarini joylashtirish usuli (ochiq yoki yopiq obuna):

Obligatsiyalar potensial investorlarning cheklanmagan doirasi o'rtasida ochiq obuna yo'li bilan joylashtiriladi.

11.2. Ushbu chiqarilish obligatsiyalarini joylashtirish muddati:

Obligatsiyalarni joylashtirish muddati korporativ obligatsiyalar chiqarish to'g'risidagi ushbu qaror davlat ro'yxatiga olingan kundan boshlab 365 kundan ortiq emas.

Chiqarilgan obligatsiyalarni joylashtirishning boshlanish sanasi – ushbu obligatsiyalarni chiqarish O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq davlat ro'yxatiga olinganligi to'g'risida e'lon qilingan sanadan keyingi o'n beshinchi kun hisoblanadi.

Agar joylashtirishni boshlash sanasi bank hisob-kitob operatsiyalari uchun dam olish kuniga to'g'ri kelib qolsa, joylashtirishni boshlash sanasi dam olish kunlaridan keyingi birinchi ish kuniga ko'chiriladi

Qimmatli qog'ozlarni joylashtirishni tugallash sanasi – oxirgi obligatsiyani investorga sotish sanasi, lekin u korporativ obligatsiyalar chiqarish to'g'risidagi ushbu qaror O'zbekiston Respublikasi Kapital bozorini rivojlantirish agentligida davlat ro'yxatiga olingan kundan boshlab 365 kundan ortiq bo'lmasligi kerak.

11.3. Ushbu chiqarilish obligatsiyalarini joylashtirish tartibi:

Ushbu chiqarilish obligatsiyalari "Toshkent" RFB maydonchasida qimmatli qog'ozlar savdosi tashkilotchisining qoidalari bilan belgilangan tartibda joylashtiriladi.

Ushbu chiqarilish obligatsiyalari anderrayterlarni jalb qilmasdan joylashtiriladi.

11.4. Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi va qimmatli qog'ozlarga huquqlarni hisobga oladigan investitsiya vositachining to'liq firma nomi, shu jumladan tashkiliy-huquqiy shakli, joylashgan joyi, pochta manzili, telefoni:

«Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi» DUK to'g'risida ma'lumotlar:

To'liq nomi: Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi.

Tashkiliy huquqiy shakli: Davlat unitar korxonasi.

Joylashgan manzili va pochta manzili: 100170, O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Mustaqillik shoh ko'chasi, 107, telefon (+99871) 267-37-42, faks (+99871) 267-36-94.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy depozitariysi va investitsiya vositachilari bank obligatsiyalarini qonunchilikda o'rnatilgan tartibda hisobga olib boradi.

Ushbu chiqarish doirasida chiqarilgan obligatsiyalarga huquqlarni ro'yxatga olish bo'yicha xizmatlarni ko'rsatish uchun investitsiya vositachisi sifatida "Alp Ornad Invest" mas'uliyati cheklangan jamiyati bilan xizmat ko'rsatish to'g'risida bitim tuzildi.

"Alp Ornad Invest" mas'uliyati cheklangan jamiyati:

Tashkiliy huquqiy shakli: Mas'uliyati cheklangan jamiyat.

Yuridik manzili: O'zbekiston Respublikasi, 100070, Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Tafakkur proyezdi, 2-11. Telefon: 231-01-39,233-62-73.

Qimmatli qog'ozlar bozorini boshqarish bo'yicha vakolatli organ tomonidan 2018-yil 16-avgustda qimmatli qog'ozlar egalari hisobini yuritish bo'yicha faoliyatni amalga oshirish huquqi uchun berilgan 1333-sonli litsenziya haqiqatan ham muddatsiz hisoblanadi.

11.5. Joylashtirilayotgan ovoz beruvchi aksiyalarga konvertatsiya qilinadigan obligatsiyalarni sotib olishga imtiyozli huquqni amalga oshirish tartibi:

Ushbu chiqarish obligatsiyalari ovoz beruvchi aksiyalarga konvertatsiya qilinadigan obligatsiya hisoblanmaydi, shu munosabat bilan ovoz beruvchi aksiyalarga konvertatsiya qilinadigan obligatsiyalarni sotib olishga imtiyozli huquqni amalga oshirish ko'zda tutilmagan.

11.6. Ushbu chiqarish obligatsiyalarining bahosi (baholari) yoki joylashtirish bahosini aniqlash tartibi:

Chiqarilgan ushbu obligatsiyalar bozor qiymati bo'yicha, lekin nominal qiymatidan kam bo'lmagan qiymat bo'yicha joylashtiriladi. Nominal qiymati 1 000 000 (bir million) so'mga teng.

11.7. Obligatsiyalarga haq to'lash shartlari va tartibi:

Ushbu chiqarish obligatsiyalari bo'yicha haq uyushgan birja bozorida birja qoidalarga muvofiq tuziladigan bitimlar asosida naqd pulsiz hisob-kitob yo'li bilan O'zbekiston Respublikasining valyutasida to'lanadi.

11.8. Ushbu obligatsiyalarning chiqarilishi amalga oshmagan deb hisoblanishi mumkin bo'lgan hollar uchun obligatsiyalarga to'lov sifatida emitent olgan mablag'larni qaytarish tartibi:

Ushbu chiqarilgan obligatsiyalar umumiy miqdorining 30 (o'ttiz) foizdan kami joylashtirish muddati mobaynida joylashtirilganida obligatsiyalarni chiqarish amalga oshmagan deb hisoblanadi.

Obligatsiyalarni chiqarish amalga oshmagan deb tan olinadigan hollarda obligatsiyalarning egasi bo'lgan bank tomonidan olingan obligatsiyalarning nominal qiymati va obligatsiyalarga hisoblangan foizlar qonunchilikda o'rnatilgan tartibda obligatsiyalar chiqarilishi amalga oshmagan deb tan olingan sanadan boshlab 10 (o'n) kun mobaynida qaytarilishi kerak.

12. Ushbu chiqarilgan korporativ obligatsiyalar bo'yicha ta'minot:

Ushbu chiqarilgan obligatsiyalar bo'yicha ta'minot ko'zda tutilmagan

13. Korporativ obligatsiyalarning muomalada bo'lish tartibi va muddatlari:

Obligatsiyalarning muomalada bo'lishi ularni sotib olish-sotish yo'li bilan, shuningdek qonunchilikda ko'zda tutilgan obligatsiyalarning egalari almashinishiga olib keladigan boshqa harakatlar bilan amalga oshiriladi. Obligatsiyalar birjada va qimmatli qog'ozlarning birjadan tashqari bozorida sotilishi mumkin.

Qimmatli qog'ozlar bozorida obligatsiyalar bilan investorlar savdo qiladi. Obligatsiyalar bo'yichaning bitimlar qonunchilikda o'rnatilgan tartibda tuziladi va ro'yxatga olinadi.

Obligatsiyalar uyushgan bozorda qimmatli qog'ozlar bilan savdo-sotiqning tashkilotchisi qoidalariga muvofiq ravishda bu qimmatli qog'ozlarga mavjud talab va taklifdan kelib chiqqan holda sotiladi va sotib olinadi.

Obligatsiyalarga egalik huquqi oluvchining depo hisobvarag'iga o'rnatilgan tartibda tegishli yozuv kiritilgan vaqtdan boshlab unga beriladi va qonunchilikda o'rnatilgan tartibda investitsiya vositachisi bergan depo hisobvaraقدan ko'chirma bilan tasdiqlanadi.

"Kapitalbank" ATB obligatsiya egalari investitsiya vositachilarida ko'rsatilgan rekvizitlarining (xizmat ko'rsatuvchi bankning nomi va kodi, hisobvaraqlarning nomeri) ishonchligi uchun javobgar bo'lmaydi.

Obligatsiyalarning muomalada bo'lish muddati ushbu chiqarish obligatsiyalarini joylashtirishni boshlash sanasidan 2555 (ikki ming besh yuz ellik besh) kuni tashkil etadi.

14. Korporativ obligatsiyalar bo'yicha so'ndirish va daromadlarni to'lash shartlari.

14.1. Korporativ obligatsiyalarni so'ndirish shakli (pul mablag'lari, mulk, konvertatsiya va h.k.):

Obligatsiyalar faqat pul mablag'lari bilan O'zbekiston Respublikasining valyutasi – so'mda naqd pulsiz shaklda so'ndiriladi.

14.2. Korporativ obligatsiyalarni so'ndirish tartibi va shartlari, shu jumladan so'ndirish muddati:

Obligatsiyalarni so'ndirish obligatsiyalarni joylashtirish boshlangan sanadan boshlab 2 556 (ikki ming besh yuz ellik oltinchi) kunda amalga oshiriladi.

Korporativ obligatsiyalarni chiqarish to'g'risidagi ushbu Qarorning ta'siriga tushadigan obligatsiyalarning egalari to'liq so'ndirish sanasigacha o'z obligatsiyalariga egalik qilish huquqiga ega bo'ladi.

Emitent Markaziy depozitariy tomonidan so'ndirish sanasiga shakllantiriladigan obligatsiyalar egalari reyestri asosida mablag'larni qaytaradi.

Pul mablag'lari obligatsiyalarni so'ndirish sanasidan boshlab 10 (o'n) bank kuni mobaynida qaytariladi. To'lovlarni amalga oshirishga ajratilgan kunlar uchun foizlar hisoblanmaydi va to'lanmaydi.

"Kapitalbank" ATB obligatsiya egalari reyestrda ko'rsatilgan rekvizitlarining (xizmat ko'rsatuvchi bankning nomi va kodi, hisobvaraqlarning nomeri) aniqligi uchun javobgar bo'lmaydi.

14.3. Har bir obligatsiya bo'yicha to'lanadigan daromadni (daromad miqdori yoki uni aniqlash tartibi, shu jumladan har bir kupon bo'yicha to'lanadigan daromad miqdori yoki uni aniqlash tartibi) aniqlash tartibi:

Obligatsiya egasi obligatsiyada qayd etilgan obligatsiyaning nominal qiymatidan foiz (foiz daromadi)ni olish huquqiga ega.

Oraliq davr bir kalendar oyga teng bo'lib, u tugagandan so'ng obligatsiyalar egasiga foiz daromadi to'lanadi.

Har bir obligatsiya bo'yicha foiz daromadi har oyning oxirida hisoblanadi va to'lanadi. Bu holda obligatsiya bo'yicha foiz daromadi Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi shakllantiriladigan obligatsiyalar egalari reyestriga muvofiq har oyning oxirgi kuni to'lanadi. 1-oyning boshlanish sanasi obligatsiyalarni joylashtirishni boshlash sanasiga, shuningdek keyingi oylarning boshlanish sanalariga va bu oylarning birinchi sanalariga to'g'ri keladi.

Bunda obligatsiyalar bo'yicha foiz daromadi O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining joriy oyning birinchi kuni amalda bo'lgan qayta moliyalash joriy stavkasi bo'yicha plus + yillik 5% miqdorida har oyda to'lanadi. "Kapitalbank" ATB chiqargan obligatsiyalar bo'yicha foiz daromadlari muomaladagi oraliq davrlar (oylar) uchun to'lanadi. Bitta obligatsiya bo'yicha oraliq davr (oy) uchun foiz daromadi quyidagi tarzda aniqlanadi:

A) ushbu chiqarish obligatsiyalari dastlabki egasi tomonidan chiqarilganda:

$$K = Kot * S * (T2 - T1) / 365$$

K – obligatsiyaga hisoblangan foiz daromadi;

Mosh - obligatsiyaning nominal qiymati;

S – O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining tegishli oraliq davr boshlanishida amalda bo‘lgan qayta moliyalash joriy stavkasi, plyus + yillik 5%;

T2 – tegishli oying oxirgi sanasi (oraliq davr);

T1 – bu oraliq davr (tegishli oy) da obligatsiyalarni sotib olish sanasi.

B) V boshqa hollarda:

$$K = Mosh * S * (T2 - T1) / 365$$

K – obligatsiyaga hisoblangan foiz daromadi;

Mosh - obligatsiyaning nominal qiymati;

S – O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining tegishli oraliq davr boshlanishida amalda bo‘lgan qayta moliyalash joriy stavkasi, plyus + yillik 5%;

T2 – tegishli oying oxirgi sanasi (oraliq davr);

T1 - tegishli oy (oraliq davr) ning birinchi (boshlang‘ich) sanasi.

14.4. Korporativ obligatsiyalar bo‘yicha daromadni to‘lash tartibi va muddati, shu jumladan har bir kupon bo‘yicha daromadni to‘lash tartibi va muddati:

Obligatsiya egalarining foiz daromadlari har bir kalendar oy tugashi bilan oraliq to‘lovlar shaklida to‘lanadi.

Oraliq davr bir kalendar oyga teng bo‘lib, bu oy tugaganidan so‘ng obligatsiyalar egalariga foiz daromadi to‘lanadi.

Oraliq to‘lovlar miqdori har bir kalendar oying boshida amalda bo‘lgan foiz stavkalari va kalendar oying davomiyligidan kelib chiqqan holda obligatsiyalarning nominal qiymatiga hisoblangan foizlar shaklida aniqlanadi.

Foiz daromadlari daromad hisoblangan kalendar oy tugagandan keyingi oying o‘ninchi kunigacha har oyda to‘lanadi.

Obligatsiyalar bo‘yicha daromadlarni to‘lash grafigi bank tomonidan ishlab chiqiladi va “Kapitalbank” ATB (www.kapitalbank.uz) Internet-saytida Obligatsiyalarni joylashtirishni boshlash sanasidan boshlab o‘n kun mobaynida e‘lon qilinadi.

Daromadlarni hisoblash uchun Markaziy depozitariy qonunchilikda o‘rnatilgan muddatda har bir kalendar oying oxiriga daromad hisoblanayotgan oying oxirgi ish kuni holati bo‘yicha obligatsiyalar egalarining reyestrini taqdim etadi. Bank Markaziy depozitariy taqdim etgan obligatsiyalar egalarining reyestri asosida foiz daromadlarini to‘lash uchun obligatsiyalar bo‘yicha daromadlar summasini olishga vakolat berilgan shaxslarning har biriga to‘lanishi kerak bo‘lgan pul mablag‘lari summasini hisoblab chiqadi. Bank kalendar oy tugagandan keyingi 10 kundan kechikmay reyestriga muvofiq obligatsiya egalariga to‘lanishi kerak bo‘lgan daromadlar summasini obligatsiyalarning egalari ko‘rsatgan mablag‘lar talab qilib olinguncha saqlanadigan depozit hisobvaraqlariga o‘tkazadi.

Hisoblangan va to‘langan foiz daromadlari to‘g‘risidagi axborot O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq:

- Yagona korporativ axborot portalida (www.openinfo.uz);
- “Toshkent” RFB AJ veb-saytida (www.uzse.uz);
- “Kapitalbank” ATB veb-saytida (www.kapitalbank.uz) e‘lon qilinadi.

“Kapitalbank” ATB obligatsiya egalarining Markaziy depozitariyda ko‘rsatilgan rekvizitlarining (xizmat ko‘rsatuvchi bankning nomi va kodi, hisobvaraqlarning nomeri) aniqligi uchun javobgar bo‘lmaydi.

14.5. Korporativ obligatsiyalarni muddatidan ilgari so‘ndirish imkoniyati va shartlari, xususan: muddatidan ilgari so‘ndirish bahosi (qiymati), korporativ obligatsiyalar ko‘rsatilganidan ilgari so‘ndirishga taqdim etilishi mumkin bo‘lmagan muddat, shuningdek emitentning muddatidan ilgari so‘ndirish to‘g‘risidagi axborotni e‘lon qilish tartibi:

Korporativ obligatsiyalarni chiqarish to‘g‘risidagi ushbu Prospektida faqat O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining ruxsati bilan obligatsiyalarni muddatidan ilgari so‘ndirish ko‘zda tutilgan, ushbu chiqarish ro‘yxatga oluvchi organ tomonidan amalga oshmagan deb tan olingan, sud tomonidan ushbu chiqarish haqiqiy emas deb tan olingan va “Kapitalbank” ATB qayta tashkil etiladigan yoki tugatiladigan hollar bundan istisno hisoblanadi.

Obligatsiyalar chiqarilishi amalga oshmagan yoki haqiqiy emas deb tan olingan hollarda bank obligatsiyalar egalariga investitsiya qilingan mablag‘larni, shuningdek obligatsiyalarni chiqarish amalga oshmagan yoki haqiqiy emas deb tan olingan oraliq davrda obligatsiyalar muomalada bo‘lgan haqiqiy

muddatlar uchun hisoblanishi kerak bo'lgan foizlarni qaytarishni ta'minlash majburiyatini zimmasiga oladi.

“Kapitalbank” ATB tugatiladigan va/yoki qayta tashkil etiladigan hollarda ushbu obligatsiyalar bo'yicha talablar depozitorlar va boshqa kreditorlarning talablari qondirilganidan so'ng qondiriladi.

Bunday hollarda “Kapitalbank” ATB obligatsiya egalariga obligatsiyaning nominal qiymatini va obligatsiya bo'yicha hisoblangan foizlarni o'rnatilgan tartibda 10 (o'n) kun mobaynida to'lash majburiyatini zimmasiga oladi.

Qimmatli qog'ozlarni muddatidan oldin qayta sotib olish to'g'risidagi axborot o'rnatilgan tartibda Yagona korporativ axborot portalida (www.openinfo.uz), Bankning rasmiy saytida (www.kapitalbank.uz) va “Toshkent” RFB AJ saytida (www.uzse.uz) joylashtiriladi.

15. Emitentning O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq korporativ obligatsiyalar chiqarilishi to'g'risidagi axborotni ochish tartibi:

Qimmatli qog'ozlarning ushbu chiqarilishi to'g'risidagi axborot O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga muvofiq o'rnatilgan tartibda Yagona korporativ axborot portalida (www.openinfo.uz) da, Bankning (www.kapitalbank.uz) rasmiy saytida va “Toshkent” RFB AJ ning sayti (www.uzse.uz) da e'lon qilinadi.

Korporativ obligatsiyalar chiqarish to'g'risidagi qarorning asli va nusxalari va emitent obligatsiyalarining emissiyalari prospekti bilan ariza asosida quyidagi manzil bo'yicha: O'zbekiston Respublikasi, Toshkent sh., Yunusobod tumani, Sayilgoh ko'chasi, 7, telefon: (+998 71) 200-15-15, shuningdek bank filiallaridagi nusxalari bilan tanishish mumkin.

16. Boshqa ma'lumotlar.

Bankning to'liq va qisqartirilgan nomi:

“Kapitalbank” aksiyadorlik tijorat banki, “Kapitalbank” ATB.

Bankning ro'yxatga olish nomeri va sanasi:

Bank operatsiyalarini amalga oshirish huquqiga O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan 2001 yil 7-aprelda 69-son litsenziya berilgan, 2017-yil 21-oktyabrda 69-son litsenziya qayta ro'yxatdan o'tkazilgan.

Uning O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankidagi korrespondentlik hisobvarag'i nomeri: **Korrespondentlik hisobvarag'i № 10301000900009049001, bank kodi 01088.**

Bankning tashkiliy-huquqiy shakli: **Aksiyadorlik jamiyati.**

Manzili: **O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Sayilgoh ko'chasi, 7.**

To'liq pochta manzili: **O'zbekiston Respublikasi, 100047, Toshkent shahri, Sayilgoh ko'chasi, 7, telefon: 232-10-95, faks: 232-10-95.**

Soliq organi nomi va STIR – **Toshkent shahar Yunusobod tumani Davlat soliq inspeksiyasi, STIR 207 127 843.**

Korxonalar va tashkilotlarning Yagona Davlat Registriga kiritilganligi to'g'risidagi guvohnoma, 2011-yil 16-avgustda berilgan, № 91503.

Davlat organlari tomonidan berilgan kodlar

STIR

207 127 843

KTUT kodi

23839834 kodi

OKED bo'yicha faoliyatining asosiy turi

64190 kodi

KFS bo'yicha mulkchilik shakli

144 kodi

KOPF bo'yicha tashkiliy-huquqiy shakli

1150 kodi

MHOBT bo'yicha joylashgan joyining to'liq kodi

1726266 kodi

